

**KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARNING FUQAROLAR HUQUQLARIGA TA'SIRI****Tog'ayev Xayrulla Fayzulla o'g'li**

Jizzax yuridik texnikumi

Sud Huquq Faoliyati 18/24-guruh o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20473393>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarning fuqarolar huquq va erkinliklariga ta'siri nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlariga bag'ishlangan ikkinchi bo'limidagi yangiliklar, davlatning ijtimoiy majburiyatlari, inson huquqlarining ustuvorligi tamoyili hamda huquqiy himoya kafolatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari yangi Konstitutsiya inson huquqlari himoyasining sifat jihatdan yangi bosqichini boshlab berganini va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining huquqiy poydevorini yaratganini asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiyaviy islohotlar, inson huquqlari, fuqarolik huquqlari, referendum, ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, mutanosiblik prinsipi, huquqiy kafolatlar, Yangi O'zbekiston.

**THE IMPACT OF CONSTITUTIONAL REFORMS ON CITIZENS' RIGHTS**

**Annotation.** This article provides a theoretical and practical analysis of the impact of constitutional reforms carried out in the Republic of Uzbekistan on the rights and freedoms of citizens. The study examines the innovations in the second section of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan, adopted through a nationwide referendum on April 30, 2023, dedicated to human rights, the state's social obligations, the principle of the priority of human rights, and legal protection guarantees. The findings substantiate that the new Constitution has launched a qualitatively new stage in the protection of human rights and laid the legal foundation for the New Uzbekistan development strategy.

**Keywords:** constitutional reforms, human rights, civil rights, referendum, social state, rule of law, principle of proportionality, legal guarantees, New Uzbekistan.

**KIRISH**

Zamonaviy huquqiy davlatda Konstitutsiya nafaqat oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonun, balki inson huquq va erkinliklarining mustahkam kafolati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi sifat darajasiga ko'tarish maqsadini ko'zlaydi.

Ushbu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumini orqali yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bo'ldi.

Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Asosiy qonunni yoqlab ovoz berdi. Bu xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha intilishlari va ishonchini ifoda etadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan bo'lib, unda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari sezilarli darajada kengaytirildi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning fuqarolar huquqlariga ta'sirini ilmiy tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan u huquqshunoslikning konstitutsiyaviy huquq tarmog'ini boyitsa, amaliy jihatdan huquqni qo'llash, sud va boshqa davlat organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolar huquqlariga doir kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tizimli o'rganish hamda ularning huquqiy ta'sirini baholashdan iborat.

## ASOSIY QISM

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida birinchi marta O'zbekiston "boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deb e'lon qilindi. Bu norma davlatning yangi mohiyatini belgilab beradi va fuqarolarga muayyan minimal farovonlikni kafolatlash majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi. Asosiy qonunda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga oid normalar ilgari tahrirga nisbatan uch barobar ko'paygan.

Konstitutsiyaning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" degan norma mustahkamlandi. Mazkur tamoyil davlat siyosatining barcha yo'nalishlari uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi va davlat organlari faoliyatining mohiyatini belgilab beradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 19-moddasiga muvofiq, inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Bu norma O'zbekiston Respublikasi xalqaro insonparvarlik standartlariga sodiqligini ifoda etadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi, bu esa tabiiy huquqlar nazariyasining konstitutsiyaviy darajada tan olinishidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim yangiliklaridan biri – mutanosiblik prinsipining huquqiy darajada mustahkamlanishidir. Asosiy qonunning 20-moddasiga ko'ra, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. Bu norma davlat hokimiyatini cheklash va fuqaro huquqlarini ortiqcha aralashuvdan himoya qilishning muhim mexanizmidir.

Konstitutsiyaning 26-moddasida insonning sha'ni va qadr-qimmat daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'la olmasligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, Asosiy qonunda "Miranda qoidasi" deb nomlanuvchi xalqaro standart joriy etildi: ushlangan har bir shaxs o'z huquqlari, ushlanish sabablari va unga qo'yilayotgan ayblov mohiyati to'g'risida ona tilida darhol xabardor qilinishi shart. Bu norma jinoyat protsessual huquq sohasida tub o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Yangi Konstitutsiyaning ijtimoiy yo'nalishi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ta'lim olish huquqi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, mehnat va dam olish huquqlari yanada kengaytirildi.

Konstitutsiyaning 50-moddasida belgilangan ta'lim olish huquqi kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2023-yil 1-avgustdan boshlab soliq to'lovchilar tomonidan farzandlarining ta'lim olishi uchun yo'naltirilgan to'lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritildi. Bu fuqarolar huquqlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy chora hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy islohotlar fuqarolarning sud orqali himoyalani huquqini ham mustahkamladi. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Bunga qo'shimcha tarzda, inson va davlat organlari o'rtasida yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi belgilab qo'yildi, bu esa huquqni qo'llash amaliyotida fuqaro manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish tamoyilining ifodasidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi, axborot olish huquqi kabi raqamli davr uchun zarur bo'lgan huquqlar ham mustahkamlandi.

Bu xalqimizning zamonaviy axborot jamiyatidagi huquqlarini muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratadi. Shuningdek, gender tengligi, ayollar va yoshlar huquqlari, bola huquqlari, ekologik huquqlar kabi yo'nalishlar bo'yicha ham yangi normalar kiritildi.

### **MUHOKAMA**

Konstitutsiyaviy islohotlarning fuqarolar huquqlariga ta'sirini bir necha jihatdan baholash mumkin. Birinchidan, normativ-huquqiy jihatdan: yangi Konstitutsiya inson huquq va erkinliklariga doir normalarni sezilarli darajada kengaytirdi va ularga aniqlik kiritdi. Agar avvalgi tahrirda inson huquq va erkinliklariga 35 ta modda bag'ishlangan bo'lsa, yangi tahrirda bu raqam 46 taga yetdi. Bu raqam ortidagi sifat o'zgarishlari yanada muhimroqdir.

Ikkinchidan, institutsional jihatdan: islohotlar fuqaro huquqlarini himoya qiluvchi institutlarning vakolatlarini ham kengaytirdi. Konstitutsiyaviy sud, Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman), prokuratura organlari hamda sudlarning roli oshdi. Bu institutlarning faoliyati orqali fuqarolar o'z huquqlarini samarali himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Uchinchidan, huquqni qo'llash amaliyoti jihatidan: yangi Konstitutsiya qoidalari bevosita amal qiladigan normalar sifatida sudlar tomonidan qo'llanilmoqda. Bu fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Sud tizimida insonparvarlik tamoyilini joriy etish, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi, ma'muriy javobgarlik me'yorlarining qayta ko'rib chiqilishi konstitutsiyaviy islohotlarning amaliy natijalaridir.

To'rtinchidan, xalqaro huquqiy jihatdan: yangi Konstitutsiya O'zbekistonning xalqaro insonparvarlik standartlariga rioya qilish bo'yicha majburiyatlarini mustahkamladi. Bu BMT konvensiyalari, xalqaro pakt va shartnomalar talablarini milliy huquqqa singdirishga xizmat qiladi. Natijada fuqarolar nafaqat milliy huquq, balki xalqaro huquq mexanizmlari orqali ham o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy islohotlar samarasini oshirish uchun bir qator muammolarga ham e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, Konstitutsiya normalarini ijro etish mexanizmlari yanada takomillashtirilishi kerak. Faqat normaning mavjudligi yetarli emas, balki uning amaliyotda samarali qo'llanilishini ta'minlash zarur. Ikkinchidan, fuqarolarning huquqiy ongini va madaniyatini oshirish, ularga o'z huquqlari va ularni himoya qilish yo'llari haqida axborot yetkazish bo'yicha ishlar kuchaytirilishi lozim.

Uchinchidan, davlat xizmatchilari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining inson huquqlari sohasidagi malakasini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Yangi Konstitutsiya normalarining haqiqiy ma'noda amal qilishi ko'p jihatdan ularni qo'llovchi mutaxassislarga bog'liqdir. To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining roli kuchaytirilishi va ularning fuqaro huquqlarini himoya qilishdagi ishtiroki rag'batlantirilishi kerak.

### **XULOSA**

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolar huquqlarini himoya qilish sohasidagi yangi davrning huquqiy asosini yaratdi. Asosiy qonunda inson huquq va erkinliklariga oid normalarning sifat va miqdor jihatdan kengayishi, ijtimoiy davlat tamoyilining mustahkamlanishi, mutanosiblik prinsipining joriy etilishi va sud orqali himoyalaniş kafolatlarining kuchaytirilishi konstitutsiyaviy islohotlarning yetakchi yutuqlaridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya nafaqat fuqarolar huquqlarini kengaytirdi, balki davlat va inson o'rtasidagi munosabatlar mohiyatini ham o'zgartirdi. Endi davlat inson uchun, fuqaro manfaatlarini ta'minlash uchun mavjud bo'lgan tashkilot sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Bu yondashuv jahon huquqiy taraqqiyotining ilg'or yo'nalishlariga mos keladi va O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida shakllanish jarayonining muhim bosqichini ifoda etadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning fuqarolar huquqlariga ta'siri uzoq muddatli xarakterga ega. Asosiy qonunda mustahkamlangan normalar asosida boshqa qonun hujjatlari takomillashtirilmogda, huquqni qo'llash amaliyoti yangi mazmun kasb etmogda. Ushbu jarayonda har bir fuqaro o'z huquqlarini bilishi, ularni himoya qilish yo'llaridan xabardor bo'lishi va Konstitutsiya talablariga rioya etishi zarur. Faqat shundagina konstitutsiyaviy islohotlarning chinakam samarasi hayotda namoyon bo'lishi mumkin.

Kelajakda mazkur yo'nalishda fuqarolar huquqlarining ayrim toifalari (raqamli huquqlar, ekologik huquqlar, biotibbiyot sohasidagi huquqlar va boshqalar) bo'yicha aniqroq tadqiqotlar olib borilishi, konstitutsiyaviy normalarning amaliy qo'llanilishi monitoringi tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu O'zbekistonning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati sifatida yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi orqali qabul qilingan. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni, 2023-yil 1-may, O'RQK-1-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.
4. Saidov A.X. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2020. – 392 b.
5. Tojixonov U. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 488 b.
6. Xolmuminov J. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy poydevori // Jamiyat va boshqaruv. – 2023. – №3. – B. 12–19.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan).
8. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (BMT, 1966-yil).